

O‘SMIRLARDA AGRESSIV XULQ – ATVORNING NAMOYON BO‘LISHI

Abduolimova Ruxshonabonu Muhammadsoli qizi
Andijon davlat pedagogika instituti Pedagogika
va psixologiya yo‘nalishi 302-guruh talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘smirlik davri o‘ziga xos murakkab davr bo‘lib, aksar bu yosh vakillarida agressiv xulq-atvor kuzatilishi tabiiy holatga aylangan. Agressiv holatlarni mohiyatini anglash jamiyatda kishilar o‘rtasidagi kelishmovchilik oqibatida kelib chiqadigan har qanday xulq-atvor modellarini ijobiy yondashishga yordam beradi. Maqolada o‘smirlik davrida agressiv xulq ko‘rinishlarining tasnifi, korreksion imkoniyatlari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: agressiya, motiv, ijtimoiy vaziyat, xulq-atvor.

Agressiya – bu odamlar, odamlar guruhiga nisbatan jismoniy va ruhiy zarar yetkazishga qaratilgan individual yoki jamoaviy xatti-harakatlar majmui hisoblanadi. Bugun insoniyat tarixi ishonchli tarzda shuni isbotlamoqdaki, agressiya shaxs va jamiyat hayotining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Bundan tashqari, agressiya ulkan tortishish kuchi va yuqumlilik xususiyatiga ega – ko‘pchilik o‘zining agressiv ekanini inkor etadi, ammo o‘zining kundalik hayotida esa, uni keng namoyish qiladi. Aynan agressiv xulq-atvor shaxslararo nizolarning vujudga kelishiga va ularni hal etishning asossiz yo‘llari paydo bo‘lishiga olib keladi. Insonlardagi shaxslararo munosabatlarda namoyon bo‘luvchi xulq-atvor tiplaridan biri agressiyadir. Psixologlar tomonidan «agressiya – boshqa tirik jonotga u buni istamagan vaziyatda haqorat yoki ziyon yetkazishni maqsad qilib qo‘ygan fe‘l-atvorning har qanday shakli», degan ta’rif qabul qilingan. U agressiyaga emotsiya, motiv yoki ko‘rsatma sifatida emas, balki fe‘l-atvor modeli sifatida qarashni taqozo etadi. Bu muhim fikr ko‘plab chalkashliklarni tug‘dirdi.

G‘azab boshqalarga tajovuz qilish uchun aslo zaruriy shart hisoblanmaydi, agressiya o‘ta sovuqqonlik holatida qancha yuzaga kelsa, shuncha o‘ta emotsional hayajon holatida ham sodir etiladi. Shuningdek, agressorlarning ular tajovuz qilayotgan shaxslardan nafratlanishi yoki ularni yoqtirishi umuman shart emas. Ko‘pchilik odamlar o‘zlari yoqtirgan insonlarga zulm o‘tkazadilar. Inson agressiyasining turli-tumanligi va tubsizligidan kelib chiqib, mazkur fe‘l-atvorni o‘rganishda asos tomonidan taklif etilgan konseptual chegaralanish juda foydali ekanligi ayon bo‘ldi. D.Bassning fikricha, agressiv harakatlarni uchta shkalaga asoslangan holda tasvirlash mumkin: jismoniy – verbal, faol – sust va to‘g‘ri egri. Ularning kombinatsiyalari sakkizta ehtimolga yaqin kategoriyalarni berib, ular asosida ko‘plab agressiv harakatlarni tushuntirish mumkin.

Insonning agressiv xatti-harakatlarga moyilligini turlicha tushuntirishga qaratilgan dastlabki nuqtai nazarlar ichida U.Makdaugoll, Z.Freyd, G.Marrey va boshqa olimlarning «inson va hayvonlarda agressiyaning tug‘ma instinkti mavjud bo‘ladi», degan qarashlaridir. Agressiv xulq-atvor haqidagi fikr-mulohazalar XX asrning boshlarida frustratsiya nazariyasi bilan bog‘liq ravishda yuzaga keldi. Unga ko‘ra, agressivlik frustratsiyaning oqibatidir. Bunday qarashni birinchi bo‘lib J. Dollard ilgari surdi. Ammo, ushbu ikki xil nuqtai nazar ham amaliyotda o‘z tasdig‘ini topmadi.

O‘smirlar agressiv xatti-harakatning paydo bo‘lishi va namoyon bo‘lishida quyidagi asosiy sabablar mavjud:

1. Oilaviy muhitning nosog‘lomligi. Oilada ota-ona va farzand o‘rtasidagi nizolar, o‘zaro bir-birini tushunmaslik holatlari, oiladagi rahbarlik uslubining to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilmaganligi va noto‘liq bo‘lgan oilalarning mavjudligi o‘smirlarda agressiyaning paydo bo‘lishiga olib keladi. Agressiv xulq-atvor natijasi qotillikkacha olib borishi mumkin. Tadqiqotchilardan biri bo‘lgan F.Getting qotillar ko‘p hollarda to‘liq bo‘lmagan oilalardan chiqqanini aniqlagan. Uning "Oiladagi agressiv bolalarni o‘rganish" bo‘yicha olib borgan maxsus tadqiqotining natijalariga ko‘ra, noto‘liq oilalarda o‘ta qahrli, qo‘pol, agressiv va shu bilan birga voyaga yetmagan jinoyatchilar kelib chiqayotganligini alohida ko‘rsatib o‘tgan. Uning ta’kidlashicha to‘liq oilalarda ham, noto‘liq oilalarda ham sog‘lom yoki nosog‘lom oilaviy muhit mavjud bo‘ladi. Oiladagi doimiy janjallar, mojarolar oilada nosog‘lom muhitni vujudga keltiruvchi omillar

2. Tengdoshlar guruhi. O‘smirlar doim o‘zgalarga taqlid qiladilar. Ular tengdoshlarining xatti-harakatlarini kuzatgan tarzda o‘zlarini agressiv tutishga urinadilar. Haddan tashqari agressiv bolalar

“Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim, fan, innovatsiya va ilmiy tadqiqotlarning salmoqli natijalari: muammo va yechimlar” mavzusida Respublika ilmiy anjuman to’plam materiallari 2024-yil 19-aprel kun.

esa o‘z tengdoshlari orasida siqib chiqariladi. Bunday bolalar o‘zini xo‘rlangandek his qilib, o‘zi kabi agressiv bolalar guruhidan joy topadilar. Bu esa muammo ustiga muammo tug‘dirmasdan qolmaydi.

3. Ommaviy axborot vositalari agressiya kuchayishiga ta’sir qilmoqda. Namoyish etiluvchi jangari filmlar, ko‘rsatuvlar, internet orqali o‘zining yosh va psixologik xususiyatlariga mos kelmaydigan ma’lumotlar, jangari o‘yinlarni o‘ynash agressiyaning paydo bo‘lishiga sabab bo‘lmoqda.

Nizoli vaziyat hal etilganda jazolanish ham tugaydi. Bundan keyin o‘smirga qilgan xatolarini ta’kidlash aslo mumkin emas. O‘smir agressiyasini bartaraf etishning eng maqbul usuli kattalarning o‘z-o‘zlarini boshqara olishlari, sabr-toqat bilan o‘smirga to‘g‘ri yo‘llarni ko‘rsata bilishlariga bog‘liq. Bunday holatlarda birgalikda biror-bir foydali ish bilan mashg‘ul bo‘lish tavsiya etiladi. Agar o‘smir xatti-harakatlari atrofdagilar hayoti va salomatligi uchun jiddiy xavf tug‘dirsa, u muayyan bir davr ichida o‘zgarishlarga moyillik bildirmasa, psixiatrga murojaat etish, kerakli muolaja va chora-tadbirlar olib borilishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bolalarga o‘smirlarga maslahat berishda yosh psixologik yondashuv/Ed. G.V.Burmenskoy E. I.Zaxarova O.A.Karabova va boshqalar., „Akademiya, 2012.-112s
2. Maxmudova Z.M., Olimov L.Ya. Social Psychological Characteristics Of Psychological Defenses Manifested In Adolescents In Extreme Situations. Вестник интегративной психологии журнал для психологов. Выпуск № 22, 2021 г. С 233 237.
3. Elov Z.S. Psychological influence of speech disorders and the causes that cause them on the child's psyche. Academicia globe: inderscience research volume: 3, issue 1, january-2022 39-42
4. Maxmudova Z.M., Olimov L.Ya.. Psixodiagnostika va eksperimental